

**“Avtomobil yo’llari uchun o’quv platformasi”
veb-saytining foydalanuvchi
YO‘RIQNOMASI**

Toshkent – 2024 yil

Mundarija

1. Kirish	3
2. “Bosh sahifa” bo’limi	3
3. “Shaxsiy kabinet” bo‘limi.....	5

1. Kirish

“Avtotransport” uchun rasmiy veb-saytga kirish uchun brauzerning manzillar satriga tegishli havola kiritiladi va **OneID** orqali ro’yhatdan o’tiladi



1-rasm. “Avtorizatsiya” oynasi

“**OneID orqali kirish**” tugmasi bosilib, foydalanuvchi o’zining One ID dagi login hamda parolini kiritib “**Войти**” (Kirish) tugmasi bosib kirladi.


2-rasm. “Avtorizatsiya” oynasi. OneID

2. Bosh sahifa

Avtorizatsiyadan muvaffaqiyatli tarzda o’tgandan keyin “Bosh sahifa” ochiladi. Ushbu oynada quyidagi ma’lumotlarni uchratish mumkin:

- Reklama;
- Statistika;
- Tizimdan foydalanish yo’riqnomasi;
- Kurslar;
- O’qituvchilar;
- Kurslar haqida izoh;

Veb-saytda malaka oshirgan tinglovchilar soni, malaka oshirish kurslari soni va uzoq yillik tajribaga ega ustozlarimiz soni kabi statistik ma’lumotlarni ko’rish imkoniyati mavjud.



Istalgan joyda, o'zingizga qulay vaqtda o'qish imkoniyati

0+

Malaka oshirgan tinglovchilar

1+

Malaka oshirish kurslari

3+

Uzoq yillik tajribaga ega ustozlarimiz

3-rasm. “Bosh sahifa” oynasi. Statistika ma'lumotlari

Bundan tashqari, tizimdan to'g'ri foydalanish uchun tizimdan foydalanish yo'riqnomasini yuklab olish imkoniyati mavjud.
Tizimdan foydalanish yo'riqnomasi

Tizimdan foydalanish bo'yicha yo'riqnomma

Yuklab olish

4-rasm. “Bosh sahifa” oynasi. Tizimdan foydalanish yo'riqnomasi.

Foydalanuvchi kurslar ro'yhatidan o'ziga kerakli va o'zini qiziqtirgan kursni tanlab ko'rish imkoniyati mavjud.

Kurslar



Avtomobil yo'llarida buyurtmachi xizmati texnik nazorati.

Ushbu kurs avtomobil yo'llarida buyurtmachi xizmati texnik nazorati...

5-rasm. “Bosh sahifa” oynasi. Kurslar ro'yxati.

Bizning o'qituvchilar qismida esa foydalanuvchi o'qituvchilar haqida qisqacha ma'lumot olish imkoniga ega.

Bizning o'qituvchilar



6-rasm. “Bosh sahifa” oynasi. Bizning o'qituvchilar ro'yhati.

Bundan tashqari, kurslar haqida foydalanuvchilar fikrini o'qish imkoniyati mavjud.

Kurslar haqida fikr-mulohazalar


Three reviews are shown in a grid format:

- Xojimirzayev Boburjon**
★★★☆☆
Very understanding, patient and will help you improve your English. I highly recommend this teacher.
- Xojimirzayev Boburjon**
★★★☆☆
Very understanding, patient and will help you improve your English. I highly recommend this teacher.
- Xojimirzayev Boburjon**
★★★☆☆
Very understanding, patient and will help you improve your English. I highly recommend this teacher.

7-rasm. “Bosh sahifa” oynasi. Kurslar haqida fikr-mulohazalar.


3. Shaxsiy kabinet bo'limi

Shaxsiy kabinet bo'limiga kirish uchun foydalanuvchi bosh sahifaning o'ng tarafida joylashgan “**Shaxsiy kabinet**” tugmasiga bosish orqali kiradi.




8-rasm. “Bosh sahifa” oynasi. Shaxsiy kabinetga kirish.

Shaxsiy kabinetda foydalanuvchi o'zi o'qiyotgan yoki o'qimoqchi bo'lgan kurslar ro'yxatini ko'rishi mumkin. O'qimoqchi bo'lgan kursini sotib olish uchun avval foydalanuvchi shartnoma tuzishi kerak bo'ladi. Shartnoma tuzish uchun "**Shartnoma**" tugmasi bosilib shartnoma tuziladi hamda shartnomadagi mablag' to'langanidan so'ng, veb-sayt ma'muri bu foydalanuvchiga kursda o'qish huquqini taqdim etadi.



9-rasm. "Shaxsiy kabinet" oynasi. Shartnoma olish.

Kursda o'qish huquqini olgan o'quvchi "**Kursni boshlash**" tugmasini bosib kursni o'qishni boshlashi mumkin. Kursni boshlash tugmasini bosib, kursning ichiga kirganida kursning modullari ro'yhati va testlar ro'yhati keltirilgan bo'ladi.



10-rasm. "Shaxsiy kabinet" oynasi. Kursni boshlash.

Kursdagi darslarni o'qish uchun kelgan darsning o'ng tarafidagi “**Davom etish**” tugmasi bosiladi. Darslarni ketma-ketlikda ko'rish majburiy agar dars tugatilmasa keying dars yopiq xolatda bo'ladi.

The screenshot shows a course page titled "Avtomobil yo'llarida buyurtmachi xizmati texnik nazorati". It includes a video player, a list of tasks with checkboxes, and a summary section. A red box highlights the "Davom etish" button at the bottom right of the summary section.


11-rasm. “Shaxsiy kabinet” oynasi. Kurs tarkibi.

Darsning ichiga “Davom etish” tugmasi bosilib kirilganda darsning videosi, mavzu bo'yicha o'quv qo'llanma (PDF) ko'rinishida va mavzu bo'yicha o'quv qo'llanma (PPT) ko'rinishida yuklab olish mumkin. Undan tashqari, mavzu bo'yicha qandaydir savol tug'ulsa “Ustozga savol yuboring” chati orqali savolni yuborish imkoniyati mavjud. Mavzuni tugatib keying mavzuga o'tish uchun “**Darsni tugatdim**” tugmasini bosib darsni muvaffaqiyatli yakunlash mumkin.

The screenshot shows a video player with a "Darsni tugatdim" button at the bottom left. To the right, there's a sidebar with a "Darslik tarkibi" section and a "Ustozga savol yuboring" section. A red box highlights the "Darsni tugatdim" button.

12-rasm. “Shaxsiy kabinet” oynasi. Darsni ko'rish.

Kursni muvaffaqiyatli yakunlash uchun esa hamma darslarni ko'rib bo'lgach, **yakuniy test** imtihonini topshirish kerak bo'ladi va bu testni yakunlab kursni yakunlash mumkin.



13-rasm. "Shaxsiy kabinet" oynasi. Kursni yakunlash.